XALQ DEPUTATLARI ANGOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 8-yanvar VII-18-2-8-109-K/26 Angor tumani

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq hamda Angor tumani Soliq inspeksiyasining 2025-yil 16-dekabrdagi 18-09893-son xatini inobatga olib, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar to‘g‘risidagi Angor tumani Soliq inspeksiyasi boshlig‘i I.Xudoyqulovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (tsementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **MARDONOV QOSIM ESONOVICH**

Xalq deputatlari Angor tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-18-2-8-109-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stantsiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

so‘mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Angor tumani	756.5	919,1	756.5	919.1	81 052,5	16 210.5	41 066,6	41 066,5

Xalq deputatlari Angor tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-18-2-8-109-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

so‘mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(tsement va ohak ishlab chiqarish uchun mo’ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G’isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag’al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
2	Angor tumani	6 591	10 700	21 400	32 100	17 066	4 943	5 350

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli